



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHNING NOAN'ANAVIY USULLARI

Ziyodaxon Nurmuhammadovna Mullaboyeva

Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida keltirilgan o'quvchi uchun talaffuziga qiyinchilik tug'diradigan va murakkab bo'lgan so'zlarni lug'atshunoslik asosida izohi hamda keng fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha yangi usullar orqali lug'at boyliklarini oshirishdan iborat.*

**Kalit so'zlar:** *lug'at ustida ishlash, interfaol metodlar, ona tili va o'qish savodxonligi darsligi, lug'at tarkibi, leksikografiya*

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016-yilda bo'lib o'tgan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida: "... bizning eng katta boyligimiz - bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir"<sup>3</sup> - deb ta'kidladi. Tasdiqlangan standartda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi sifatida o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlarni (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) rivojlantirish;

ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetentsiyalarni shakllantirishdan iboratligi belgilab qo'yilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tili taraqqiyotini o'rganishda, leksik qatlamdagi yangilanish jarayonlari, tilning lug'at boylining ortib borishida so'z yasalishi hodisasini o'rni beqiyosligini o'quvchilarga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta'lim tizimini isloh, qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar va lug'atlar ustida ishlash jarayonida va tushuntirishda grafik organayzerlardan foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar berish, o'quvchilarning nutqiy komponentligini oshirishda qo'llaniladigan innovatsion usullar to'g'rida ma'lumot berish asosiy maqsad qilib olingan.

O'quvchilarning nutqiy komptetatsion yondashuv asosida dars jarayoniga olib kirish hamda bu quyidagi vazifalar orqali amalga oshirilishida nazarda tutiladi:

<sup>3</sup> SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz "Xalq so'zi" 2021-yil



- lug'at ustida ishlash haqidagi nazariy qarashlarni o'rganish;
- lug'at ustida ishlashga doir adabiyotlarda berilgan nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish;
- o'quvchilarda lug'at boyligini oshirishda boshqa fanlar bilan hamkorlikda o'zbek tili fani nazariyasi hamda amaliyatiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- lug'atshunoslik asosan mavzu yuzasidan olinganligi bois uni o'qitishda grafik organayzerlardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ona tili o'qitishdagi ahamiyatini yoritish;
- lug'at bilan ishlashni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradigan vositalarni ishlab chiqish kabilardan iborat.

#### **□ "Beshtasini ayt" o'yini**

Bu lug'atlarni tez o'rganish va lug'atlarni ko'rib chiqish uchun oson o'yinlardan biri bo'lib, unda siz o'zingizning qoidalaringizni ishlab chiqishingiz mumkin.

Sinfda o'quvchilaringizni guruhlarga ajrating va har bir guruhgaga biror bir topik bering (Masalan, pitsa qo'shimchalari).

❑ Ular 20 soniya ichida ushbu topikka tegishli beshta narsani (masalan, pitsa qo'shimchalari: pishloq, qo'ziqorin, jambon, bekon, makkajo'xori) doskada o'ylab topishlari kerak.

❑ Bu o'zin o'quvchilarda so'zlarni tez eslab qolish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi!

#### **□ "Ha" yoki "Yo'q" demang o'yini**

❑ Ushbu o'zin o'quvchilar diqqatini va savol berish qobiliyatini rivojlantiruvchi o'zin hisoblanadi. O'zin tezkor savol - javob tarzida o'tkazilishi kerak!

❑ O'yinda berilgan savollarga "Ha" yoki "Yo'q" deb javob berish mumkin emas. Bularning o'rniغا o'quvchi shu javobni boshqa so'zlar bilan tasvirlashi lozim.

Taqiqlangan so'zlarni ishlatgan va savolga javob berolmagan o'quvchi yutqazgan hisoblanadi. O'yinda ko'p va murakkab savollar ham berilishi kerak. Bu diqqat - e'tiborning ochiq sinovidir!

♀ Savollarga misollar:

- Bugun nonushta qildingizmi?
- Sizning soch turmangiz sizga yoqadimi?
- Bugun darsga kechikmadingizmi?
- Kino sizga yoqadimi?
- Qaysi gullarni yoqtirasiz va qaysi birini yoqtirmaysiz? Nima uchun?

Yashil va pushti rangda ajratilgan gaplarni solishtiring. Ularning farqiga e'tibor bering.

Ormon chetidagi o'tloqda bir savatcha



turardi. Uning ichida tuxum bor edi.

Shundoq o'rmon chetida, o'tloq bo'yida  
Chiroqli bir savatcha yotar qarovsiz.  
Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,  
Bunaqasin, ehtimol, ko'rmagansiz siz.

Quyidagi ta'riflarning qay biri yashil, qay biri pushti rangdagi gaplarga mos  
ekanini ayting.

Bir-birimiz bilan gaplashganda  
ishlatiladigan gaplarga o'xshaydi.

Har bir qatori bir xil ohangda o'qiladi.  
Qatorlar oxirida aytilishi o'xhash so'zlar  
ishlatilgan.

Berilgan jadvaldagi misollar o'quvchilardagi fikrlash qobiliyatini shakllantirishga  
hamda ularning nutqiy komponentligini oshirishga yordam beruvchi ishlardan biri  
hisoblanadi.

Maqolaning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, undagi asosiy ilmiy xulosalar  
bosholang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida mavzular asosida  
keltirilgan o'quvchi uchun tushunarsiz bo'lgan va ularni o'rganish jarayonida  
qiyinchilik tug'diradigan so'zlar ustida ishlash jarayonida noan'anaviy usullarni dars  
davomida fanga tatbiq etish, undagi o'zgaruvchanlik, o'quvchilarning o'zlashtirish  
natijalari bo'yicha bayon etilgan ilmiy metodik xulosalardan umumiy o'rta ta'limda  
foydanish mumkinligidan iborat.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va  
olijanob xalqimiz bilan birga quramiz "Xalq so'zi" 2021-yil

2.A.Hojiyev,O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy  
masalalari-Toshkent Fan2010

3.Tursunov U., Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili  
Toshkent; O'zbekiston: 1997



4.G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi : -Toshkent 2012

**Internet saytlari:**

1. <https://o'qituvchi>
2. <https://arxiv.uz>